QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.095

ONA TILI TA’LIMIDA AUDIOMATNLARNI TANLASH VA MURAKKABLIK DARAJASINI BELGILASHNING METODIK MEZONLARI

Matniyazova Dilrabo Ulug‘bekovna
Oriental universiteti Samarqand kampusi
“Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada ona tili ta’limida tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda foydalaniladigan audiomatnlarni tanlash hamda ularning murakkablik darajasini belgilash doir metodik mezonlar tizimlashtirilib, ularni tinglab tushunish topshiriqlarini ishlab chiqish bilan bog‘lash imkoniyatlari yoritiladi. Natijada bu ikki jarayonga mos topshiriqni belgilashni yagona metodik jarayon sifatida tashkil etish modeli taklif qilinadi. Audiomatnni o‘quvchilarga taqdim etishda uning mazmunan qiziqarliligi yoki mavzuga oidligi emas, balki ta’limiy maqsad, o‘quvchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasi, matnning hajmi, beriladigan ma’lumotlar zichligi, leksik va grammatik tarkibi, nutq sur’ati, mazmuniy murakkabligi kabi bir qator omillar hisobga olinishi zarurligi asoslanadi. Shu bilan birga, audiomatnning murakkabligini belgilashda parametrlarning o‘zaro ta’sirining metodik ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: ona tili ta’limi, audiomatn tanlash, matn murakkabligi, metodik mezon, axborot zichligi, nutq sur’ati, tinglab tushunish ko‘nikmasi.

АННОТАЦИЯ. В данной статье систематизируются методические критерии выбора аудиотекстов, используемых для формирования и развития навыков аудирования при обучении родному языку, а также обосновываются возможности их взаимосвязи с разработкой заданий по аудированию. В результате предлагается модель организации процесса выбора аудиоматериала и соответствующих заданий как единого методического процесса. Обосновывается, что при выборе аудиотекста для учащихся важно учитывать не только содержательную привлекательность или тематическую актуальность, но и такие факторы, как учебные цели, возраст и уровень подготовки учащихся, объем текста, плотность информации, лексико-грамматический состав, темп речи и смысловая сложность. Кроме того, раскрывается методическое значение взаимодействия данных параметров при определении уровня сложности аудиотекста.

Ключевые слова: обучение родному языку, выбор аудиотекста, сложность текста, методический критерий, плотность информации, темп речи, навык аудирования.

ABSTRACT. This article systematizes the methodological criteria for selecting audio texts used to form and develop listening comprehension skills in native language education, and

highlights the possibilities of linking these criteria with the development of listening comprehension tasks. As a result, a model is proposed to organize the selection of audio material and the corresponding tasks as a unified methodological process. It is substantiated that when presenting audio texts to students, it is necessary to consider not only content interest or thematic relevance but also factors such as educational goals, students' age and proficiency level, text length, information density, lexical and grammatical structure, speech rate, and semantic complexity. At the same time, the methodological significance of the interaction between these parameters in determining the difficulty level of an audio text is demonstrated.
Keywords: native language education, audio text selection, text complexity, methodological criteria, information density, speech rate, listening comprehension skill.

Kirish. Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchining nutqiy faoliyatini faqat o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikmalari bilan chegaralab qo‘yish yetarli emas. Shaxsning kommunikativ kompetentligini shakllantirishda og‘zaki nutqni tinglash, eshitilgan axborotni anglash, muhim ma’lumotni ajratish, mazmuniy bog‘lanishlarni aniqlash, xulosa chiqarish va tinglangan materialga munosabat bildirish kabi ko‘nikmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan tinglab tushunish ona tili ta’limining tarkibiy komponentlaridan biri sifatida alohida metodik yondashuvni talab qiladi.

Tinglab tushunish jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchiga taqdim etilayotgan audiomatnning sifatiga bog‘liq. Audiomatn o‘quv maqsadiga muvofiq tanlanmasa, uning mazmuni, hajmi yoki til xususiyatlari o‘quvchining tayyorgarlik darajasiga mos kelmasa, tinglash faoliyati kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu sababli ona tili ta’limida audiomatn tanlashni faqat mavzuga mos materialni topish jarayoni sifatida emas, balki muayyan metodik mezonlarga asoslangan pedagogik faoliyat sifatida qarash zarur.

Audiomatnni tanlash bilan bir qatorda uning murakkablik darajasini aniqlash ham muhim masalalardan biridir. Chunki bir xil mavzuga oid ikki audiomatn mazmun hajmi, axborot zichligi, leksik tarkibi, gap qurilishi, nutq sur’ati yoki tinglovchidan talab qilinadigan fikriy amal jihatidan keskin farq qilishi mumkin. Demak, audiomatnning murakkabligi faqat uning uzunligi bilan belgilanmaydi. Murakkablik bir nechta lingvistik, mazmuniy va metodik parametrlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. [1,2].

Ona tili ta’limida ushbu masalaning dolzarbligi, ayniqsa, tinglab tushunishga yo‘naltirilgan topshiriqlar soni va mazmunining kengayib borayotgani bilan izohlanadi. Audiomatn asosida tashkil etiladigan topshiriqlar o‘quvchidan turli darajadagi tinglash amallarini bajarishni talab qiladi. Masalan, ayrim topshiriqlarda asosiy axborotni aniqlash yetarli bo‘lsa, boshqalarida sabab-oqibat munosabatlarini anglash, yashirin mazmunni aniqlash, xulosa chiqarish yoki muallif munosabatini belgilash talab etiladi. Bunday topshiriqlarning samaradorligi esa audiomatnning murakkablik darajasi bog‘liq jarayon hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, audiomatnni tanlash va uning murakkablik darajasini belgilashni o‘zaro bog‘liq ikki metodik jarayon sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Birinchi jarayonda ta’limiy maqsadga mos audiomatn tanlanadi, ikkinchi jarayonda esa mazkur audiomatnning o‘quvchi uchun

murakkablik darajasi aniqlanadi. Bu esa o‘z navbatida audiomatnga mos tinglab tushunish topshirig‘ini ishlab chiqish imkonini beradi.
Ushbu maqolaning maqsadi ham ona tili ta’limida bu ikki jarayonni amalga oshirish uchun xizmat qiluvchi metodik mezonlarni tizimlashtirish hamda ushbu mezonlarning tinglab tushunish topshiriqlarini tashkil etishdagi metodik imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot doirasida audiomatnni tanlashda mazmuniy, lingvistik, ta’limiy va kommunikativ jihatlar; uning murakkabligini aniqlashda esa hajm, axborot zichligi, leksik-grammatik tarkib, nutq sur’ati, mazmuniy bog‘lanishlar hamda tinglovchidan talab qilinadigan kognitiv amal kabi jihatlari uning asosiy mezonlar sifatida qaraladi.

1. Audiomatnlarni tanlashning metodik mezonlari

Audiomatnni tanlash jarayonida uning mazmuni, til xususiyatlari, hajmi, kommunikativ vazifasi va o‘quvchining tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi kerak. Shu sababli audiomatn tanlashni tasodifiy material saralash emas, balki oldindan belgilangan metodik mezonlar asosida amalga oshiriladigan jarayon sifatida talqin qilish lozim. Bizningcha, ona tili ta’limida audiomatnlarni tanlashda quyidagi asosiy mezonlarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

1-jadval

№	Mezon	Asosiy mazmuni	Aniqlash ko‘rsatkichi
1	Ta’limiy maqsadga muvofiqlik	Audiomatnning dars maqsadiga xizmat qilishi	Tinglashdan kutiladigan natijaning aniq belgilanganligi
2	Mazmuniy moslik	Matn mazmunining o‘quv mavzusi va ta’lim mazmuniga muvofiqligi	Mavzu, g‘oya va axborotning o‘quv mazmuni bilan bog‘liqligi
3	Yosh va tayyorgarlik darajasiga moslik	Matnning o‘quvchi imkoniyatlariga mosligi	Lug‘at, mazmun va murakkablik darajasi
4	Lingvistik moslik	Leksik, grammatik va sintaktik birliklarning mosligi	Notanish birliklar, murakkab gaplar va grammatik konstruksiyalar miqdori
5	Axborot zichligi	Muayyan vaqt ichida beriladigan axborot miqdori	Asosiy va ikkinchi darajali axborotlar nisbati
6	Kommunikativlik	Matnning real nutqiy vaziyatni ifodalashi	Muloqot, monolog, suhbat yoki real kommunikativ vaziyatning mavjudligi
7	Hajm jihatdan mosligi	Audiomatn davomiyligining o‘quv maqsadiga mosligi	Audio davomiyligi va tinglovchi faoliyati nisbati
8	Nutqiy aniqlik	Audiomatnning talaffuz va ovoz jihatidan tushunarliligi	Tovushning sifati, talaffuzning ravshanligi, pauza va intonatsiya

9	Qiziqarlilik va motivatsion qiymat	Matnning o‘quvchini tinglashga undashi	Mazmunning hayotiyligi, yangiligi va o‘quvchining` tajribasi bilan bog‘liqligi
10	Metodik imkoniyat	Audiomatn asosida turli darajadagi topshiriqlar tuzish imkoniyati	Axborotni topish, ajratish, taqqoslash, xulosa chiqarish kabi amallarni tashkil etish imkoniyati

Ta’limiy maqsadga muvofiqlik mezoni. Audiomatn tanlashda birinchi navbatda undan qanday ta’limiy natija kutilayotgani aniqlanishi kerak. Tinglab tushunish jarayonining maqsadi faqat matnni eshitish emas, balki eshitilgan axborot bilan muayyan nutqiy yoki kognitiv amalni bajarishdan iborat. Shuning uchun audiomatn tanlashdan oldin o‘quvchining tinglash yakunida qanday faoliyatni amalga oshirishi belgilanishi zarur. Masalan, asosiy axborotni aniqlash maqsad qilingan bo‘lsa, audiomatnda asosiy fikrni ajratish imkonini beradigan mazmuniy tuzilma mavjud bo‘lishi kerak. Agar maqsad xulosa chiqarish bo‘lsa, matnda bevosita berilmagan, biroq mazmuniy bog‘lanishlar orqali anglash mumkin bo‘lgan axborot mavjudligi talab etiladi. Demak, audiomatn tanlash mezoni uning “yaxshi” yoki “qiziqarli” ekanligi bilan emas, avvalo, belgilangan metodik maqsadni amalga oshirish imkoniyati bilan belgilanadi. [3].

Mazmuniy moslik mezoni. Audiomatn mazmuni ona tili darsining mavzusi va o‘quv maqsadi bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi lozim. Bunda matnning faqat mavzuga tashqi jihatdan mos kelishi yetarli emas. Undagi axborot o‘quvchining tinglab tushunish faoliyatini faollashtirishi va belgilangan o‘quv amalini bajarishga imkon yaratishi kerak. Mazmunni tanlashda mavzuning hayotiyligi, axborotning mantiqiy izchilligi, asosiy g‘oyaning mavjudligi, faktlar o‘rtasidagi bog‘lanish va xulosaga kelish imkoniyati kabi jihatlar hisobga olinadi.

Yosh va tayyorgarlik darajasiga moslik mezoni. Bir xil audiomatn turli tayyorgarlik darajasidagi o‘quvchilar uchun bir xil darajada tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli audiomatn tanlashda o‘quvchining yosh xususiyatlari bilan bir qatorda uning mavjud lug‘at boyligi, oldingi bilimlari va tinglab tushunish tajribasi ham hisobga olinishi zarur. Bu mezon audiomatnni haddan tashqari soddalashtirishni ham, o‘quvchi imkoniyatidan yuqori darajadagi materialni berishni ham cheklaydi.

Lingvistik moslik mezoni. Audiomatnning leksik va grammatik tarkibi ham uning tanlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omildir. Matnda uchraydigan so‘zlarning o‘quvchi uchun tanish-notanishligi, terminlarning miqdori, sinonimik birliklarning qo‘llanishi, gaplarning uzunligi va sintaktik tuzilishi tinglash jarayonining murakkabligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan lingvistik moslikni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlarga e’tibor berish mumkin: notanish leksik birliklar miqdori; termin va maxsus birliklarning ulushi; uzun va murakkab gaplarning mavjudligi; sintaktik bog‘lanishlarning murakkabligi; ko‘chma ma’noli birliklarning qo‘llanishi; sinonim va perifrazalarning mavjudligi.

Axborot zichligi mezoni. Audiomatnning murakkabligini belgilashda axborot zichligi alohida ahamiyatga ega. Bir xil davomiylikdagi ikki matnda tinglovchiga taqdim etiladigan axborot miqdori turlicha bo‘lishi mumkin. Axborot birliklari qancha ko‘p va ular o‘rtasidagi

munosabatlar qancha murakkab bo‘lsa, tinglovchining axborotni qayta ishlash yuklamasi shuncha ortadi.

Shuning uchun audiomatnni tanlashda faqat uning davomiyligini emas, balki muayyan vaqt oralig‘ida nechta mazmuniy birlik taqdim etilayotganini ham hisobga olish lozim.

Kommunikativlik mezoni. Tinglab tushunish tabiatan kommunikativ faoliyat bo‘lganligi sababli audiomatn imkon qadar tabiiy nutqiy vaziyatni aks ettirishi maqsadga muvofiq. Suhbat, monolog, intervyu, hikoya, e’lon, xabar yoki muayyan kommunikativ vaziyatga asoslangan boshqa shakllardan foydalanish o‘quvchining turli nutq ko‘rinishlarini anglash imkoniyatini kengaytiradi.

Hajm jihatdan moslik mezoni. Qisqa audiomatnlar asosiy axborotni aniqlash kabi sodda tinglash amallarini tashkil etishda qulay bo‘lsa, nisbatan uzun audiomatnlar mazmunni tahlil qilish, axborotni tizimlashtirish va xulosa chiqarish imkoniyat yaratadi.

Metodik imkoniyat mezoni. Audiomatnning metodik qiymati undan qanday topshiriqlar tuzish mumkinligi bilan ham belgilanadi. Agar bitta audiomatn asosida faqat “matn nima haqida?” kabi umumiy savol berish mumkin bo‘lsa, uning metodik imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Aksincha, audiomatn asosida asosiy va ikkilamchi axborotni ajratish, ketma-ketlikni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini topish, muallif munosabatini anglash va xulosa chiqarish kabi turli amallarni tashkil etish mumkin bo‘lsa, uning metodik imkoniyati yuqori hisoblanadi. Shunday qilib, audiomatn tanlashda “Bu matnni tinglatish mumkinmi?” degan savoldan ko‘ra “Bu audiomatn belgilangan tinglash amalini shakllantirish uchun qanday metodik imkoniyat beradi?” degan savol muhimroqdir. Yuqoridagi mezonlar audiomatnni tanlashning dastlabki bosqichini tashkil etadi. Biroq tanlangan audiomatnning o‘quvchi uchun qanchalik murakkab ekanini aniqlash alohida metodik tahlilni talab qiladi. Xalqaro tadqiqotlarda ham tinglash qiyinligiga nutq tezligi, leksik va sintaktik murakkablik, axborot zichligi, matnning ochiq-yashirin mazmuni kabi omillar ta’sir qilishi ko‘rsatilgan.

Audiomatnlarning murakkablik darajasini belgilash mezonlari

Audiomatnni tanlash jarayonidan keyingi muhim metodik vazifa uning murakkablik darajasini aniqlashdan iborat. Audiomatn murakkabligini faqat matnning davomiyligi bilan belgilash to‘g‘ri emas. Shuningdek, matn hajmini audiomatn murakkabligining yagona ko‘rsatkichi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq emas. Chunki qisqa audiomatn ham yuqori axborot zichligi yoki murakkab sintaktik tuzilishi sababli tinglovchi uchun qiyin bo‘lishi mumkin.

Shu asosda ona tili ta’limida audiomatn murakkabligini quyidagi asosiy mezonlar orqali aniqlash mumkin:

2-jadval

№	Murakkablik mezoni	Asosiy ko‘rsatkich
1	Leksik murakkablik	Notanish, kam qo‘llanadigan va terminologik birliklar miqdori
2	Sintaktik murakkablik	Gaplarning uzunligi va sintaktik qurilishining murakkabligi

3	Mazmuniy murakkablik	Asosiy va ikkilamchi axborot o‘rtasidagi munosabat
4	Axborot zichligi	Vaqt birligida beriladigan mazmuniy axborot miqdori
5	Nutq sur’ati	Axborotning tinglovchiga yetkazilish tezligi
6	Audiomatn hajmi	Tinglash davomiyligi va mazmuniy birliklar soni
7	Mazmunning ochiqlik darajasi	Axborotning bevosita yoki bilvosita ifodalanishi
8	Mantiqiy bog‘lanish	Axborot birliklari o‘rtasidagi sabab-oqibat, vaqt, qiyos va boshqa munosabatlar
9	Kognitiv yuklama	Tinglovchidan talab qilinadigan fikriy amal darajasi
10	Akustik xususiyatlar	Talaffuz ravshanligi, pauza, intonatsiya va ovoz sifati

Leksik murakkablik. Leksik murakkablik audiomatnni qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir qiluvchi omillardan biridir. Matnda o‘quvchi uchun notanish, kam qo‘llanadigan, mavzuga xos yoki terminologik birliklarning ko‘payishi tinglash jarayonida axborotni anglash yuklamasini oshiradi.
Shu sababli audiomatn murakkabligini belgilashda faqat so‘zlar soni emas, balki ularning o‘quvchi uchun tanishlik darajasi ham hisobga olinishi lozim. *Sintaktik murakkablik.* Audiomatndagi gaplarning tuzilishi ham tinglovchining axborotni qayta ishlashiga ta’sir ko‘rsatadi. Sodda va qisqa gaplardan tashkil topgan audiomatn, odatda, murakkab sintaktik konstruksiyalar ko‘p uchraydigan matnga nisbatan osonroq qayta ishlanadi. Bunda gap uzunligi, ergash gaplarning mavjudligi, uyushiq bo‘laklar, murakkab sintaktik munosabatlar va gaplar o‘rtasidagi bog‘lanishlar e’tiborga olinishi mumkin. [4,5].

Mazmuniy murakkablik. Audiomatn mazmunining murakkabligi undagi axborotning qanday tashkil etilganligi bilan belgilanadi. Asosiy fikr bevosita ifodalangan, voqealar izchil bayon qilingan matnni tushunish nisbatan oson bo‘lishi mumkin.
Aks holda asosiy xulosaga bir nechta dalil yoki fikrlar orqali kelinadigan, sabab-oqibat munosabatlari bevosita aytilmaydigan yoki muallifning munosabati yashirin ifodalangan audiomatn yuqoriroq murakkablikni yuzaga keltiradi.
Demak, mazmuniy murakkablik axborotning mavjudligidan ko‘ra, uni anglash uchun tinglovchi bajarishi kerak bo‘lgan fikriy amal bilan ham belgilanadi.

Axborot zichligi. Muayyan vaqt davomida ko‘p miqdorda mazmuniy birliklarning taqdim etilishi tinglovchidan axborotni tezroq qabul qilish va qayta ishlashni talab qiladi. Masalan, uch daqiqalik birinchi audiomatnda asosiy fikr bir necha bor takrorlansa, ikkinchi audiomatnda har

bir gap yangi axborot bersa, ikkinchi matnning axborot zichligi yuqoriroq bo‘ladi.

Nutq sur’ati. Audiomatnning qanday tezlikda taqdim etilishi tinglovchining axborotni qabul qilish imkoniyatiga ta’sir qiladi. Nutq sur’ati oshgani sari tinglovchining tovushni ajratish, so‘zni tanish, gap mazmunini qayta ishlash va keyingi axborot bilan bog‘lash uchun ajratadigan vaqti qisqaradi.

Shu sababli nutq sur’ati audiomatn murakkabligini belgilashda mustaqil mezon sifatida emas, boshqa parametrlar bilan birgalikda baholanishi kerak. *Audiomatn hajmi.* Uzoq audiomatn tinglovchidan axborotni uzoqroq vaqt davomida xotirada saqlashni talab qilishi mumkin, ammo qisqa audiomatn ham yuqori axborot zichligi yoki murakkab mazmun sababli qiyin bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun hajm + axborot zichligi + nutq sur’ati birgalikda baholanishi maqsadga muvofiq.

Mazmunning ochiqlik darajasi. Audiomatnda zarur axborotning bevosita yoki bilvosita ifodalanishi ham murakkablikni o‘zgartiradi. Ochiq mazmunda kerakli ma’lumot bevosita aytiladi. Tinglovchi uni eshitib aniqlashi mumkin. Bilvosita mazmunda esa tinglovchi turli axborot birliklarini bog‘lab, xulosa chiqarishi kerak bo‘ladi. Shu sababli bilvosita ifodalangan mazmunning ko‘payishi audiomatnning kognitiv murakkabligini oshiruvchi omil sifatida qaralishi mumkin.

Kognitiv yuklama. Audiomatnning murakkabligi undan talab qilinadigan tinglash amaliga bog‘liq. Masalan: aniqlash → ajratish → taqqoslash → bog‘lash → xulosa chiqarish → baholash ketma-ketligi bo‘yicha tinglovchidan talab qilinadigan fikriy amal murakkablashib boradi.

Shu sababli bir xil audiomatn turli topshiriqlar bilan berilganda turlicha qiyinchilikni yuzaga keltirishi mumkin. Demak, audiomatn murakkabligi va tinglash topshirig‘i murakkabligini bir-biridan butunlay ajratib bo‘lmaydi.

Audiomatnning murakkablik darajalarini belgilash


Yuqoridagi mezonlar asosida audiomatnlarni shartli ravishda uch darajaga ajratish mumkin:

3-jadval

1	Ko‘rsatkich	I daraja — nisbatan sodda	II daraja — o‘rta	III daraja — murakkab
2	Leksika	Asosan tanish birliklar	Ayrim yangi birliklar	Yangi, terminologik va mavhum birliklar ko‘proq
3	Gap qurilishi	Sodda va qisqa	Aralash	Murakkab sintaktik tuzilmalar ko‘p
4	Mazmun	Asosiy fikr aniq	Bir nechta mazmuniy qatlam mavjud	Yashirin/bilvosita mazmun mavjud
5	Axborot zichligi	Past	O‘rta	Yuqori

6	Nutq sur’ati	Me’yoriy va ravon	Nisbatan tez	Tez yoki o‘zgaruvchan
7	Hajm	Qisqa	O‘rta	Nisbatan uzun
8	Mantiqiy bog‘lanish	Bevosita	Bir necha bog‘lanish mavjud	Murakkab sabab-oqibat va boshqa munosabatlar
9	Tinglovchi amali	Aniqlash, topish	Ajratish, taqqoslash, bog‘lash	Tahlil qilish, xulosa chiqarish, munosabatni anglash

Bu darajalash qat’iy va o‘zgarmas tasnif emas, balki audiomatnlarni metodik saralash uchun ishchi model sifatida qaralishi lozim. Chunki matnning murakkabligi bitta parametrga emas, bir nechta parametrning birgalikdagi ta’siriga bog‘liq. Audiomatnning murakkablik darajasini aniqlashda quyidagi umumlashtirilgan modelni taklif etishimiz mumkin:



Mazkur yondashuv audiomatnni shunchaki “oson”, “o‘rta” yoki “qiyin” deb baholashdan farqli ravishda, uning murakkabligini tashkil etuvchi komponentlarni alohida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

2. *Audiomatnni tanlash va murakkablik darajasini belgilashning integrallashgan metodik modeli*

Audiomatnni tanlash va uning murakkablik darajasini belgilashni alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘langan yagona metodik jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuvni quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin:



Bu ketma-ketlikda har bir bosqich keyingi bosqich uchun asos vazifasini bajaradi. Masalan, o‘quv maqsadi aniqlanmasdan audiomatnni tanlash, audiomatn murakkabligi baholanmasdan topshiriq ishlab chiqish yoki o‘quvchi imkoniyatlari hisobga olinmasdan bir xil murakkablikdagi materiallardan foydalanish metodik jihatdan yetarli natija bermasligi mumkin.

Audiomatnni metodik saralash bosqichi

Birinchi bosqichda darsning maqsadi aniqlanadi. Maqsad tinglovchidan qanday faoliyat kutilayotganini belgilaydi. Masalan: asosiy axborotni aniqlash; muhim ma’lumotni ajratish; voqealar ketma-ketligini belgilash; sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash; turli axborotlarni taqqoslash; muallif munosabatini anglash; xulosa chiqarish.

So‘ngra mazkur maqsadni amalga oshirish imkonini beradigan audiomatn tanlanadi. Bu bosqichda audiomatnning mavzu bilan bog‘liqligi, mazmuni, lingvistik xususiyatlari, kommunikativ vaziyati va o‘quvchining tayyorgarlik darajasiga mosligi tekshiriladi.

Murakkablik darajasini aniqlash. Parametrik tahlildan so‘ng audiomatn shartli ravishda uch darajadan biriga kiritiladi.

I daraja - bazaviy murakkablik. Bunday audiomatnda asosan tanish leksik birliklar, sodda sintaktik qurilmalar, aniq va izchil mazmun mavjud bo‘ladi. Nutq sur’ati tinglovchi uchun qulay, axborot zichligi nisbatan past bo‘ladi. Tinglovchidan asosan eshitilgan ma’lumotni topish, aniqlash yoki qayta aytish talab qilinadi.

II daraja - o‘rta murakkablik. Audiomatnda yangi leksik birliklar, murakkabroq sintaktik qurilmalar va bir nechta mazmuniy qatlam mavjud bo‘lishi mumkin. Axborot zichligi o‘rtacha darajada bo‘ladi. Tinglovchidan ma’lumotlarni ajratish, taqqoslash, bog‘lash va umumlashtirish talab qilinadi.

III daraja - yuqori murakkablik. Bunday audiomatnda leksik va sintaktik murakkablik yuqori, axborot zichligi katta, mazmunning ayrim qismlari bilvosita ifodalangan bo‘ladi. Tinglovchidan bir nechta axborot birliklarini bog‘lash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, yashirin mazmunni anglash va xulosa chiqarish talab etiladi. Murakkablik darajasi va beriladigan tinglash topshirig‘ining o‘zaro bog‘liqligi

Audiomatn murakkabligini aniqlashdan asosiy maqsad uni shunchaki darajalash emas, balki unga mos metodik topshiriqni tanlashdir. Shuning uchun audiomatnning murakkabligi va topshiriqning kognitiv talabi o‘zaro muvofiqlashtirilishi lozim.

4-jadval.

	Audiomatn darajasi	Yetakchi tinglash amali	Mos topshiriq turi
1	I daraja	Aniqlash, topish	Asosiy ma’lumotni belgilash, to‘g‘ri javobni tanlash
2	II daraja	Ajratish, bog‘lash, taqqoslash	Axborotni guruhlash, ketma-ketlikni aniqlash, taqqoslash
3	III daraja	Tahlil qilish, xulosa chiqarish	Sababni aniqlash, yashirin mazmunni anglash, xulosa chiqarish

Audiomatn murakkabligini oshirish topshiriqni avtomatik ravishda murakkablashtirish degani emas. Topshiriqning kognitiv talabi ham mustaqil ravishda hisobga olinishi kerak. Tinglash topshirig‘i qiyinligi matnning lingvistik va mazmuniy xususiyatlari bilan bir qatorda topshiriq va tinglovchi xususiyatlariga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Integrallashgan modelning metodik ahamiyati

Taklif qilinayotgan modelning asosiy jihati audiomatn, tinglash amali va topshiriqni yagona tizimda ko‘rib chiqishdan iborat. Bunda audiomatnning murakkabligi o‘quvchining tayyorgarlik darajasiga moslashtiriladi, tinglash amali esa belgilangan maqsadga muvofiq tanlanadi.



Audiomatn bilan ishlashning metodik tizimini quyidagi uchlik orqali ifodalash mumkin:

Ularning o‘zaro muvofiqligi ta’minlangan taqdirdagina tinglab tushunish faoliyatidan kutilgan natijaga erishish imkoniyati ortadi.

I darajadagi audiomatn

Audiomatn namunasi: *“Bugun maktabimizda kitobxonlik haftaligi boshlandi. Tadbirda o‘quvchilar o‘zlari sevib o‘qigan kitoblari haqida gapirdilar. Kutubxonachi yangi kitoblarni ham namoyish etdi. Haftalik davomida o‘quvchilar turli tanlovlarda ishtirok etadilar.”*

Mazkur audiomatnda axborot bevosita va izchil berilgan. Gaplar nisbatan sodda, leksik birliklarning katta qismi umumiste’mol xarakteriga ega. Mazmunni anglash uchun tinglovchidan murakkab xulosa chiqarish talab etilmaydi. Metodik tahlil:

5-jadval.

	Mezon	Baholash
1	Leksik murakkablik	Past

2	Sintaktik murakkablik	Past
3	Axborot zichligi	Past
4	Mazmunning ochiqligi	Yuqori
5	Nutq sur’ati	Me’yoriy
6	Kognitiv talab	Past

Mos tinglash amali: asosiy axborotni aniqlash. Mos topshiriq: “Audiomatnda maktabda qanday tadbir boshlanganini aniqlang.” Demak, ushbu audiomatn tinglab tushunish ko‘nikmasining boshlang‘ich yoki bazaviy amallarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

II darajadagi audiomatn

Audiomatn namunasi: *“So‘nggi yillarda yoshlar orasida elektron kitoblardan foydalanish kengaymoqda. Elektron kitoblarning asosiy qulayligi ularni telefon, planshet yoki kompyuter orqali istalgan joyda o‘qish mumkinligidadir. Biroq ayrim kitobxonlar bosma kitobni afzal ko‘radilar. Ularning fikricha, qog‘oz kitob bilan ishlash jarayoni diqqatni uzoqroq saqlashga yordam beradi. Shuning uchun bugungi kunda elektron va bosma kitoblar bir-birini to‘ldiruvchi vositalar sifatida qo‘llanmoqda.”* Bu audiomatnda bir nechta fikr va qarash o‘zaro bog‘langan. Tinglovchi faqat alohida faktlarni eslab qolmasdan, elektron va bosma kitoblarning xususiyatlarini taqqoslashi ham kerak.

Metodik tahlil:

6-jadval.

	Mezon	Baholash
1	Leksik murakkablik	O‘rta
2	Sintaktik murakkablik	O‘rta
3	Axborot zichligi	O‘rta
4	Mazmunning ochiqligi	O‘rta
5	Nutq sur’ati	Me’yoriy
6	Kognitiv talab	O‘rta

Mos tinglash amali: ajratish, taqqoslash va umumlashtirish.
Mos topshiriq: “Audiomatndan elektron va bosma kitoblarning ikkita farqli jihatini aniqlab, jadvalga joylashtiring.” Bu darajada tinglovchi axborotni shunchaki eshitib tanimaydi, balki uni saralaydi va o‘zaro taqqoslaydi.

III darajadagi audiomatn

Audiomatn namunasi: *“Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining ko‘plab jihatlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq texnologiyaning ta’limga kirib kelishi o‘z-o‘zidan ta’lim sifatining oshishini anglatmaydi. Masalan, elektron resurslarning ko‘pligi o‘quvchiga katta hajmdagi ma’lumotni tez topish imkonini beradi, ammo mavjud axborotni tanlash, uning ishonchliligini aniqlash va turli manbalardagi ma’lumotlarni qiyoslash alohida ko‘nikmalarni talab qiladi. Shuning uchun raqamli vositalardan foydalanish masalasida asosiy e’tibor texnologiyaning mavjudligiga emas, undan qanday pedagogik maqsadda foydalanilayotganiga qaratilishi lozim.”*

Ushbu audiomatnda asosiy fikr bevosita bitta gap orqali berilmagan. Tinglovchi bir nechta fikrni o‘zaro bog‘lashi, misol va xulosa o‘rtasidagi munosabatni anglash hamda muallifning asosiy pozitsiyasini aniqlashi kerak.

Metodik tahlil:

6-jadval.

	Mezon	Baholash
1	Leksik murakkablik	Yuqori
2	Sintaktik murakkablik	Yuqori
3	Axborot zichligi	Yuqori
4	Mazmunning ochiqligi	Nisbatan past
5	Nutq sur’ati	Me’yoriy tez
6	Kognitiv talab	Yuqori

Mos tinglash amali: tahlil qilish, munosabatlarni aniqlash va xulosa chiqarish. Mos topshiriq: “Audiomatnni tinglang. Muallifning raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid asosiy fikrini aniqlang va uni matndagi dalillar bilan asoslang.” Bu darajada tinglovchidan yuqori darajadagi anglash va qayta ishlash amallari talab qilinadi. Yuqorida keltirilgan uch darajaning qiyosiy tavsifi Yuqoridagi misollar asosida audiomatnlarning murakkablik darajasini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

7-jadval.

	Ko‘rsatkich	I daraja	II daraja	III daraja
1	Leksika	Tanish	Tanish + yangi	Mavhum/maxsus birliklar ko‘proq
2	Sintaksis	Sodda	Aralash	Murakkab
3	Axborot	Kam va aniq	O‘rtacha	Zich

4	Mazmun	Bevosita	Qisman bog‘langan	Bilvosita/murakkab
5	Tinglash amali	Aniqlash	Taqqoslash, bog‘lash	Tahlil, xulosa
6	Topshiriq	Reproduktiv	Qisman produktiv	Yuqori kognitiv talab

Xulosa. Darajalar audiomatnning mutlaq “oson” yoki “qiyin”ligini emas, muayyan o‘quvchi guruhi va muayyan ta’limiy maqsad uchun uning nisbiy metodik murakkabligini ifodalaydi. Shuningdek, bir audiomatnning darajasi topshiriq turi o‘zgarganda ham o‘zgarishi mumkin. Tadqiqot natijasida audiomatnni tanlash va uning murakkablik darajasini belgilash o‘zaro bog‘liq metodik jarayon ekanligi aniqlandi. Audiomatn murakkabligini belgilashda leksik, sintaktik, mazmuniy, axborotiy, akustik va kognitiv omillarni kompleks hisobga olish zarur. Audiomatnni tanlashda ta’limiy maqsad, o‘quvchining tayyorgarlik darajasi, mazmunning mosligi, axborot zichligi, hajm va nutq sur’ati asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Mazkur mezonlar asosida audiomatnlarni bazaviy, o‘rta va yuqori murakkablik darajalariga ajratish mumkin. Shuningdek, audiomatn murakkabligi bilan topshiriq murakkabligini farqlash zarurligi aniqlandi: bir audiomatn turli topshiriqlar orqali turlicha kognitiv yuklama hosil qilishi mumkin. Shu sababli audiomatn tanlash, uning murakkabligini aniqlash va unga mos topshiriq ishlab chiqish yagona metodik tizimda amalga oshirilishi lozim.

Taklif etilgan mezonlar ona tili ta’limida tinglab tushunish topshiriqlarini maqsadli, bosqichma-bosqich va o‘quvchining tayyorgarlik darajasiga mos tashkil etish uchun metodik asos vazifasini bajaradi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muxtarova, Sh. M. (2024). *Ona tili o‘qitish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 142-b.

2. Mavlonova, K. M., va boshq. (2024). *Ona tili. 5-sinf. 1-qism*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 160-b.

3. Révész, A., & Brunfaut, T. (2013). Text characteristics of task input and difficulty in second language listening comprehension. *Studies in Second Language Acquisition*, 35(1), 31–65.

4. Saidov, A. R. (2023). Zamonaviy ta’limda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi. *Pedagogik mahorat*, 12(2), 45–52.

5. Nation, I. S. P. (2022). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 580-b.